ISSN 2181-3187

# TIBBIYOT XODIMLARINI TAYYORLASHDA PROFESIONAL TA'LIMNI O'RNI.

***Sodiqova Yoqutoy Abdulxoshimovna***

*Angren Abu Ali ibn Sino nomidagi*

*jamoat salomatligitexnikumi mutaxassislik*

*fan o'qituvchi*

***Minbayeva Maftuna Yuldashali qizi***

*Angren Abu Ali ibn Sino nomidagi*

*jamoat salomatligitexnikumi mutaxassislik*

*fan o'qituvchi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola tibbiyot hamshiralar kasbiy tayyorlash istiqbollari muammolarini ochib beradi, aholiga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishda bakalavr hamshiralarning roli, bakalavr hamshiralar kasbiy ta'lim kompleks yo'nalishlari, usullari va hamshira-menejerning kasbiy faoliyati integratsiyasi usullari tahlili keltirilgan. Professional ta'lim muassasalari hududlarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik sharoitlarini, mehnat bozorining tegishli soha mutaxassislariga bo'lgan talabini, manfaatdor vazirliklar va idoralarning kadrlarga bo'lgan ehtiyoji hamda oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni hisobga olgan holda tashkil etiladi.

**Kalit so'zlar**: tibbiyot xodimi, malaka, ta'lim, salomatlik, o'quv tizim, tibbiyot.

**Аннотация:** В статье раскрываются проблемы перспектив профессиональной подготовки медицинских сестер, роль медицинских сестер-бакалавров в оказании медицинской и социальной помощи населению,

комплексные направления и методы профессионального образования медицинских сестер-бакалавров и методы интеграции профессиональной деятельности. Проанализированы медсестра-заведующая. Профессиональные образовательные учреждения учитывают демографические, социально-экономические и географические условия регионов, потребность рынка труда в специалистах соответствующих областей, кадровую потребность соответствующих министерств и ведомств, а также подготовку кадров на базе образовательных программ, интегрированных с системой высшего образования.

**Ключевые слова:** медицинский работник, квалификация, образование, здоровье, система образования, медицина**.**

**Abstract:** This article reveals the problems of professional training prospects of medical nurses, the role of bachelor nurses in providing medical and social care to the population, the comprehensive directions and methods of professional education of bachelor nurses and the methods of integration of the professional activities of the nurse-manager are analyzed. Professional educational institutions take into account the demographic, socio-economic and geographical conditions of the regions, the demand of the labor market for specialists in the relevant fields, the personnel needs of the relevant ministries and agencies, and the training of personnel on the basis of educational programs integrated with the higher education system. will be organized.

**Key words:** medical worker, qualification, education, health, educational system, medicine.

XX asr boshlarida Turkiston hududida besh million aholi bilan 192 ta vrach va 234 taga yaqin o‘rta tibbiyot xodimlari ishlagan. 1929 yillarda tibbiyot texnikumi (keyinchalik Y. Oxunboboyev nomidagi Respublika tibbiyot o‘quv muassasasi) qoshida parvarish bo‘yicha tibbiy texnik bo‘limi ochilgan bo‘lib, 1929-1930-yillarda tug‘ruq va chaqaloqlikni himoya qilish bo‘yicha tibbiy texnik bo‘limi ochilgan. 1929 yillarda "Qizil yarim oy" jamiyatining zahira hamshiralari va kadrlari kurslari, 1929-

ISSN 2181-3187

1930 yillarda esa sog‘liqni saqlash Xalq komissarligi hamshiralari kurslari tashkil yetildi. 1926-1927 yillarda Toshkent shahridan tashqari Farg‘ona va Samarqandda ham tibbiyot texnikumlari ochilgan edi. 1951-1952-yillardan yettita o‘quv muassasasida o‘rta tibbiyot hamshiralar o‘qitilgan. 1993-yilda mamlakatda 44 ta o‘rta tibbiyot o‘quv muassasalari mavjud bo‘lib, 2002-yil boshida O‘zbekistonda 53 ta, 2009 yildan boshlab esa Milliy o‘quv dasturi va “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun talablariga muvofiq ravishda 73ta o‘rta tibbiyot o‘quv muassasalari, tibbiyot kollejlari faoliyat ko‘rsatgan. Hozirgi kunda amaliy sog‘liqni saqlash oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, ko‘p jihatdan muayyan muammolarni hal qilish uchun mo‘ljallangan hamshiralik mutaxassislarining malakasi, bilim darajasi va ko‘nikmasiga bog‘liq. Hamshiralik ishi mutaxassislari tibbiy mutaxassislar ichida eng yirik guruhlaridan biri bo‘lib, endilikda ularning profilaktika, diagnostika va davolovchi muolajalar uchun mas’uliyat doirasi sezilarli darajada kengaymoqda. 1995-yilda Toshkentda JSST vakillari ishtirokida bosh hamshiralarning birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda hamshiralik ishining me’yoriy-huquqiy bazasini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor masalalari, o‘rta darajadagi kadrlarning kasbiy tuzilmalari qayta ko‘rib chiqilgan, har bir darajadagi o‘rni va vazifalarini oydinlashtirgan, ta’limni isloh qilish, hamshiralik xizmati standartini yaratish zarurligini aniqlangan. O‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash bo‘yicha belgilangan vazifalarni bajarish uchun respublikada mavjud tibbiyot muassasalarni tibbiyot kollejlariga - yangi tipdagi ta’lim muassasalariga va akademik litseylarga bosqichma-bosqich o‘tkazish ko‘zda tutilgan, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida maxsus fakultetlar ochilgan. Shunday qilib, to‘plangan xorijiy va ichki tajribani hisobga olgan holda, hamshiralik ishini tashkil etish va boshqarishda hamshiralik ishi menejerlarini tayyorlash va uning samaradorligini oshirishda asosiy masalalardan biri ularni umumiy amaliyot shifokorlari va amaliy sog‘liqni saqlash hamshiralari instituti talablariga muvofiq tayyorlashdir. Shu bilan birga, ularning ahamiyatini va rolini oshirish hisobga olgan holda maqsadli o‘qitish va bosh hamshiralarning muntazam malakasini oshirish zarurligini ta’kidlash muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:**

ISSN 2181-3187

1. Алимов А.В., Юсупалиева Г.А. Перспективы применения модульной технологии обучения в медицинском образовании //Ўзбекистон тиббиёт журнали.-2008.-№5.-С.99-103.
2. Асадов Д.А., Умарова Т. Ю. Перемены в развитии сестринского дела //Педиатрия. –1997. -№3. –С. 101-104.
3. Атаханов Ш.Э. Подготовка сестринских кадров //Ҳамшира.-2006.-№1.-С.3-4.
4. Бахтина И.С. Новые направления в совершенствовании непрерывного медицинского образования //Сестринское дело.-2006.-№4.-С.11-16.
5. Бражников А.Ю., Камынина Н.Н. К вопросу о подготовке в России специалистов с высшим сестринским образованием//Медицинская сестра.-2010.-№3.-С.12-15.
6. Камынина Н.Н., Бражников А.Ю. Совершенствование управленческой подготовки менеджеров сестринского дела //Экономика здравоохранения. -2007. -№11. -С.41-43.
7. Камынина Н.Н. Вопросы подготовки специалистов с высшим сестринским образованием //Мед.сестра. -2008. -№3. -С.48.